PEDAGOGY JOURNAL

http://bestarticle.fast-page.org/

ISSN: 7675-6548 (E)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SHE'RIY DIDAKTIK MATNLARDAN FOYDALANISH ZARURATI

Muhammadiyeva Aziza Rustamovna
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani MMTB tasarrufidagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
azizamuhammadiyeva45@gmail.com
Muhammadiyeva Zaynab Abulqosim qizi
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani MMTB tasarrufidagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi.

Annotatsiya: *ushbu maqolada she'riy didaktik matnlarning mazmuni,boshlang'ich sinflar darslarida she'riy didaktik matnlardan foydalanish usullari,shuningdek she'riy didaktik matnlardan foydalanib dars o'tilsa,samarali natijalarga erishish mumkinligi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: She'riy didaktik matn,yosh xususiyati,she'riy nutq,mustaqil fikrlash,dars,usullar,o'yin texnologiyalari,idrok etish,men dunyoni anglayman she'ri.

Annotation: this article reflects on the content of poetic didactic texts,methods of using poetic didactic texts in classes of primary classes,as well as on the fact that effective results can be achieved if a lesson is taught using poetic didactic texts.

Keywords: poetic didactic text,age feature,poetic speech,independent thinking,lesson,methods,game technologies,perception, I understand the world poem.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание поэтических дидактических текстов,способы использования поэтических дидактических текстов на уроках начальных классов,а также возможность достижения эффективных результатов,если урок проводится с использованием поэтических дидактических текстов.

Ключевые слова: поэтический дидактический текст,возрастная характеристика,поэтическая речь,самостоятельное мышление,урок,методы,игровые технологии,восприятие, стихотворение Я понимаю мир.

ISSN: 7675-6548 (E)

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar samarasi ,avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq. [1,7-bet] Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinflarda darslarni uyushtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib,muallimdan xilma-xil usullardan ongli foydalanishni, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib,ta'lim berishning eng maqbul yo'llarini izlab topishni talab qiladi.Shu ma'noda she'riy didaktik matnlar ilk maktab yoshidagi o'quvchilarning savodini chiqarish va ularga bilim berishda muhim rol o'ynaydi. Chunki, she'riy nutq, avvalo, ohangdorligi hamda jozibadorligi bilan o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.Bilamizki,o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishda savod o'rgatish davri muhim hisoblanadi.Har bir harfning yozilishi va o'qilishini bilib olgan o'quvchi matnlarni o'qish va mazmunini anglab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchilar she'riy didaktik matnlardan foydalansa,she'riy didaktik matnlar orqali ayrim harf va tovushlarga dahldor nazmiy parchalar ularning kunlik o'rganayotgan materialni mustahkam bilib olish imkonini beradi.

Masalan:Alifbe darsligining ilk sahifalaridan o'rin olgan A,a harfini o'rganishda ayiq,asal,asalari rasmlari aks etgan suratlarni ifodalovchi matnni tushuntirishda she'rdan foydalanishimiz mumkin.O'yinni tashkil etish jarayonida asalning ko'pligiga,ayiqqa qarshi kurash olib borib uni talayotganligi uni qutqarish uchun tez yordamga borish kerakligi qo'l harakatlari orqali bajartiriladi.

Ayiq asal yalabdi ko'p,ko'p,ko'p

ISSN: 7675-6548 (E)

Ari uni talabdi ho'p,ho'p,ho'p
Yur yordamga boramiz tez, tez, tez,
Tartibga chaqiraylik biz, biz, biz,

Bundan tashqari N,n tovushi va harfini o'rganish mavzusida onaning bolalari ishtirokida non pishirayotganligi tasviri berilgan.Biz bu tasvirni shunchaki oddiy savol-javoblar asosida yoki suhbat asosida ham tushuntirishimiz mumkin,ammo o'quvchilarning fikrlarni idrok etishi birmuncha sust bo'lishi mumkin.Ana shu rasm mazmunini to'liq idrok etish va o'quvchilarni ushbu mavzuga tayyorlash maqsadida quyidagi she'riy matndan foydalanish ko'proq samarali bo'ladi.

Onam yopar kulcha non
Menga yoqar u chunon
Tandir qizdirish uchun
Keltiramiz biz o'tin.
Hovlimizda tandircha,
Onam yopadi kulcha.
Tandircha issiq ekan,
Nonlari pishiq ekan.

Bunda o'quvchilar faol tarzda barchasi harakatda bo'ladi.Tasvir ularning ongida to'liq gavdalanadi,hatto ba'zi o'quvchilar she'rni yodlab ham oladilar.

Jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish kundan-kun rivojlanib borayotgan fan va texnika sirlarini tushuna oladigan va uni hayotga tadbiq eta oladigan yoshlarni tayyorlashni taqozo etadi.Yosh avlodga bilim berish,ularni hozirgi kundagi barcha dolzarb muammolarni tushunib,uni o'z navbatida yecha oladigan ma'nan yetuk

ISSN: 7675-6548 (E)

barkamol shaxslarni yetishtirish dolzarb masaladir.Zero, yurtimizning dunyo hamjamiyatidagi ilg'or davlatlar qatoridan joy olishi,xalqimizning porloq kelajagini tarkib toptirish bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya berishda faqat o'yinlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada dastlab bunday she'rlarni to'plash va uni dars jaroyoniga tadbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqish zarur. O'rta umumiy ta'lim maktablarida keng qo'llanilayotgan yangi pedogogik darslarni tashkil qilish, noan'anaviy usullardan keng foydalanish metodlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilish muhimdir. Bunday darslarni uyushtirishda, albatta, she'riy o'yinlardan foydalanish o'quvchilar faolligini taminlaydi. *Ularni mustaqil fikrlashga undaydi.* Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: ,,Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa,berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta,bilim ham kerak. Ammo, u o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir".[2, 61-bet.]Hozirda yangi nashr etilayotgan yangi avlod darsliklari ham aynan o'qituvchilar va o'quvchilarni erkin fikrlashga,ijodiy,kreativ yondashishga undaydi..4-sinf ona tili darsligida [3,23-bet],,Men dunyoni anglayman''mavzusida ijodiy fikrlashga undovchi mashq berilgan,o'quvchilarim barchasi ijodiy yondashib mashqni turli ko'rinishda bajarib kelishdi.4-,,B''sinf o'quvchisi Muhammadiyeva Zaynab Abulqosim qizi she'riy tarzda ,o'zi ijod qilib ,topshiriqni a'lo darajada bajarib keldi.

Men dunyoni anglayman.

Muhammadiyeva Zaynab.

Onamning allasida,

ISSN: 7675-6548 (E)

Buvimning yallasida
Tong shalolasida
Men dunyoni anglayman.
Quyosh nurin sochganda,
Oy osmondan boqqanda
Sokin ,yomg'ir yog'ganda,
Men dunyoni anglayman.
Mayin shamol esganda,
Oppoq qorlar yog'ganda
Xaritaga boqqanda
Men dunyoni anglayman.
Ustozimning mehridan
So'zlarining sehridan
Jonkuyarlik fe'lidan
Men dunyoni anglayman.

Darslarda she'riy didaktik materiallarni qo'llash tom ma'noda yuqori samaradorlikka erishishimizda yordam beradi. Shunday ekan boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga,mustaqil tahlil qila olishga chorlaydigan she'riy didaktik matnlardan foydalanish zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash,ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori .Toshkent-2018-y ,7-bet

ISSN: 7675-6548 (E)

2. IslomKarimov. «Yuksakma'naviyat — yengilmaskuch». T.: «Ma'naviyat» 2008., 61-bet

3.Sh.T.Ahmetova ,N.R.Normatova 4-sinf 1-qism Ona tili darsligi Toshkent -,, Novda"—2023, 23-bet 30-mashq.